

SAHOVATLI QASHQADARYO VOHASI BUNGUN DUNYO EʼTIROFIDA

Abduloh Davronov (Qar DU 2kurs magistranti)

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyati har sohada rivojlanib, mamlakatimiz ravnaqi uchun oʻz hissasini qushib bormoqda. Davlatimiz rahbari Qashqadaryoga tashrifini Gʻuzor tumanida barpo etilayotgan Uzbekistan GTL zavodi bilan tanishishdan boshladi. Ushbu hudud yaqin-yaqingacha quruq dasht boʻlib, bu yerda qurilishi moʻljallagan zavod loyihasi tashab qolgan edi. Shavkat Mirziyoyev bu loyihaga oid barcha masalalarni hal qilib berdi - Prezidentimizning 2016 yil 29 dekabrda qaroriga muvofiq, "Shartan gaz-kimyô majmuasining tozalangan metani negizida sintetik suyuq yoqilgʻi ishlab chiqarishni tashkil etish" investitsiya loyihasi boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar belgilandi. —Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 13-14 dekabr kunlari Qashqadaryo viloyatida tashrifida Tashrifning ikkinchi kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Qarshi shahrida Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash masalalariga bagʻishlangan videosektor yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Unda viloyat faollari, deputatlar, shaharlar va tumanlar hokimlari, sektorlar rahbarlari, keng jamoatchilik vakillari qatnashdi. Oʻzbek kimyosanoat oʻ aksiyadorlik jamiyatida 2018 yil yakuni boʻyicha kimyo tarmogʻi korxonalari faoliyati natijalari va kelgusi rejalarga bagʻ ishlangan matbuot anjumani boʻlib oʻtdi. Oʻzbek kimyosanoat oʻ aksiyadorlik jamiyati mamlakatimizdagi kimyo korxonalarini birlashtiruvchi korporativ tuzilmadir. Jamiyat tarmoq ravnaqi yoʻlida investitsiya va innovatsion dasturlar ishlab chiqishga hamda kimyo sanoatining taraqqiyoti uchun barqaror sharoitlar yaratib berishga alohida eʼtibor qaratmoqda. Shu bois bugungi kunda ammiak, karbamid, ammiakli selitra, ammoniy sulfati, ammofos va nitrofos kabi mahsulotlarning eng yirik ishlab chiqaruvchi sanalgan ushbu jamiyat ishlab chiqariladigan mineral oʻgʻitlarning turlari va hajmi boʻyicha Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi oʻrinni egallayotgani amaldagi harakatlar samarasidir. — Investitsiya dasturiga muvofiq, jamiyat korxonalari tomonidan 466,9 million dollar hajmida investitsiyalar oʻzlashtirildi, — dedi Oʻzbek kimyosanoat oʻ aksiyadorlik jamiyati matbuot xizmati rahbari Zafar Roziyev. — Shuningdek, 1 ming 242 yangi ish oʻrni yaratilgan boʻlsa, ularning 15 oʻrni kasanachilik asosidadir. Prezidentimizning yuqorida zikr etilgan qarori ijrosida oʻYoʻl xaritasi oʻ tasdiqlandi. Unga koʻra, kelgusida qariyb 7,3 milliard dollarlik 34 investitsiya loyihasi amalga oshirilishi koʻzda tutilgan. Mazkur oʻYoʻl xaritasi oʻda belgilangan vazifalar natijasida 2030 yilga qadar kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni 4,5 barobarga, shu jumladan, mineral oʻgʻitlarni 2 barobarga (1,2 million tonnadan 2,4 million tonnagacha), mahsulot eksportini 4 barobarga oshirish rejalashtirildi. Organik mahsulotlari ulushini esa 7 foizdan 54 foizga yetkazish ham muhim masalalardandir. Qarshida Toshkentdagi institutning filiali va kasbiy litsey tashkil etiladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida Vazirlar Mahkamasining oʻToshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining

Qarshi filialini tashkil etish to'g'risida o'gi qarori loyihasi Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi va Qashqadaryo viloyati hokimligining Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Qarshi filialini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilishi mumkin. **Quyidagilar Filialning asosiy vazifalari etib belgilanadi:**

qishloq va suv xo'jaligida innovatsion resurstejamkor texnika va texnologiyalarni qo'llash, yer va suv resurslarini boshqarish, geodeziya va geoinformatika, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqaruv bo'yicha zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlash;

o'quv-laboratoriya bazasini ta'lim sohalarining davlat ta'lim standartlari va ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari darajasida modernizatsiyalash, o'quv-me'yoriy hujjatlarini va uslubiy ta'minotni yetarli darajada shakllantirish, o'quv va malakaviy amaliyotlarini zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, ta'lim berish jarayonida nazariya va amaliyot birligini ta'minlash orqali bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish;

professor-o'qituvchilarning kasbiy bilimi, axborot kommunikatsion va pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng tatbiq qilish, pedagogik mahorati va ilmiy salohiyatini muntazam ravishda oshirish, xorijiy universitetlarda professor-o'qituvchilarni malakasini oshirish va stajirovkalarini tashkil etishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

fan, ta'lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash orqali manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy-texnik vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan amaliy va innovatsion izlanishlarni amalga oshirish;

potensial ish beruvchi tashkilot va korxonalarni kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini muntazam ravishda o'rganib borish orqali istiqbolda zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini belgilash, mutaxassislarni malakasini oshirish va Filial bitiruvchilarini o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga yo'naltirish va ularning kasbiy faoliyati monitoringini tizimli tashkil etish.

Qishloq va suv xo'jaligi sohasi uchun kadrlarni maqsadli tayyorlash maqsadida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Qarshi filiali huzurida Kasbiy litsey tashkil etiladi.

Quyidagilar Kasbiy litseyning asosiy vazifalari etib belgilanadi:

-O'quv jarayonini tasdiqlangan o'quv rejalari asosida tashkil etish, o'quv dasturlarini sohaga moslab unifikatsiyalash, o'quvchilarni sohalar bo'yicha oliy ta'limga maqsadli tayyorlash;

-bazaviy o'quv rejalari va dasturlari asosida beriladigan ta'lim mazmunini yuqorida darajada ta'minlash;

-o'qitishning an'anaviy shakllari, usullari va vositalari bilan bir qatorda sohaga bog'diq ravishda o'qitishning ilg'or shakllari, usullari va vositalaridan keng foydalanish;

-o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini sohaga oid inshootlarda, ilmiy va texnika laboratoriyalarida va boshqa ijodiy va madaniy maskanlarda amalga oshirish orqali, ularni kasbga qiziqishini uyg'otish;

-pedagogik kadrlari tarkibini tanlov asosida malakali, chuqur kasbiy bilimga, yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchilar bilan to'ldirishni ta'minlash;

jalb qilingan oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari ta'lim berish jarayonidan tashqari uslubiy materiallar tayyorlashda hamda yosh o'qituvchilarga ilmiy, uslubiy yordam berishda amaliy ishlarni tashkil etish;

-o'quv-laboratoriya jihozlari va sport anjomlari, kompyuter texnikasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi jihozlari, axborot resurs markazi fondi va zarur jihozlar bilan ta'minlash vazifasi yuklanadi.

Qashqadaryo viloyati hokimligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri Xonobod shoh ko'chasi 19-uy manzilida joylashgan Qarshi agrobiznes va tadbirkorlik kasb-hunar kollejining bino va inshootlarini tegishli hududi bilan birga Filialga va Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani, Qovchin qishloq xo'jaligi kasb hunar kollejining bino va inshootlarini tegishli hududi bilan birga Kasbiy litseyga operativ boshqarish huquqi asosida bepul berish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilishi mumkin.

Belgilab qo'yilishicha, Qarshi agrobiznes va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji va Qovchin qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejining o'quvchilari o'qishni bitirgunlariga qadar Filial va Kasbiy litsey binolarida o'quv jarayonini davom ettiradilar.

Filial va Kasbiy litseyda o'quv jarayoni 2019-2020 o'quv yilidan boshlanadi. Filial va Kasbiy litseyga 2019/2020 o'quv yilidan boshlab talaba va o'quvchilarni qabul qilish kvotasi belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Kasbiy litseyga umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinf bitiruvchilarini o'rnatilgan tartibda qabul qilinadi. Kasbiy litseyning faoliyati va uning ta'lim tizimi (2+1) shaklda sinov-tajriba sifatida amalga oshiriladi. Kasbiy litseyning 2 yillik dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan o'quvchilarga belgilangan tartibda o'rta maxsus kasbiy diplomi beriladi va yana +1 yillik sohaga yo'naltirilgan dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan o'quvchilarga Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va uning filiallariga kirish sinovsiz 1 kurs talabalar safiga to'lov kontrakt asosida kvotadan tashqari qabul qilish imtiyozi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 2017 yil 24-fevral kuni Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurdi. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy salohiyati ulkan. Bugungi kunda mamlakatimizda qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 70 foizi, neftning qariyb 78 foizi, gaz kondensatining 80 foizi, g'allaning 13 foizdan ortig'i, paxtaning 14 foizdan ziyodi ushbu viloyat hissasiga to'g'ri keladi. Viloyatda sanoat izchil rivojlanmoqda. Yalpi hududiy mahsulotda bu sohaning ulushi 38 foizni tashkil

etayotgani ham shundan dalolat beradi. óShoʻrtan neft-gazô, óMuborak neft-gazô korxonalari, óShoʻrtan gaz-kimyo" majmuasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Dehqonobod kaliyli oʻgʻitlar zavodi, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasi, óHisor neft-gazô kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlari mamlakatimiz sanoatining lokomotivlari hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ham jadal rivoj topmoqda. Bugungi kunda yalpi hududiy mahsulotning 51,6 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ishlab chiqarilmoqda. Mehnat bilan band aholining qariyb 80 foizi shu tarmoqda daromad topmoqda.

Qishloq xoʻjaligida moʻl hosil yetishtirilmoqda, tarkibiy oʻzgartirishlar davom ettirilmoqda. Soʻnggi besh yilda 3 ming 200 gektar paxta maydoni qisqartirilib, kartoshka, meva-sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish yoʻlga qoʻyilgan. Oxirgi uch yilda fermer xoʻjaliklarining 22 foizdan ziyodi koʻp tarmoqli xoʻjalikka aylantirilgan. Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan ana shunday islohotlar natijasida keyingi besh yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 2 barobar oshgan, hududiy eksport hajmi 100 million dollarga yetgan va 2011-yilga nisbatan 2,5 barobar koʻpaygan. Bunday oʻsish surʼatlari odamlarning turmush sharoitida, viloyatdagi shahar va qishloqlar qiyofasida namoyon boʻlmoqda.

Birinch Prezidentimiz rahbarligida Qarshi va Shahrisabz shaharlarida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari bu ikki qadimiy shahar qiyofasini tubdan oʻzgartirib yubordi. Qarshi shahrining hududi 9 ming gektardan 17 ming gektarga, Shahrisabz shahrining hududi 3 ming 300 gektardan 4 ming 900 gektarga kengaytirildi.

Mustaqilligimizning 25-yillik toʻyi nishonlangan 2016-yilda Qashqadaryo ustidagi qadimiy Amir Temur koʻprigi rekonstruksiya qilinib, daryoning ikki qirgʻogʻida Qarshi ahli va mehmonlar dam oladigan soʻlim maskanlar barpo etildi. Toshkent ñ Qarshi yoʻnalishi boʻyicha yuqori tezlikda harakatlanuvchi óAfrosiyobô tezyurar elektr poyezdi qatnovi yoʻlga qoʻyildi.

Madaniy merosining ajralmas qismi boʻlgan milliy maqom sanʼati oʻzining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy anʼanalari bilan maʼnaviy hayotimizda muhim oʻrin egallaydi.

Asrlar davomida ulugʻ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob sanʼat nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va eʼtibor qozongan. Maqom sanʼatining gultoji boʻlgan óShashmaqomô YuNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida eʼtirof etilgani hamda uning Reprezentativ roʻyxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdigʻidir. Oʻtgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom sanʼatini oʻrganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, oʻzbek óShashmaqomôï nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qoʻshiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea boʻldi. Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, Oʻzbekiston davlat konservatoriyasida shu yoʻnalishda maxsus kafedra faoliyat koʻrsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd

etish lozim. Ayni vaqtda milliy oʻzligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuygʻular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom sanʼatining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Mazkur yoʻnalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, oʻquv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom sanʼatini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmogʻi orqali mamlakatimizda va chet ellarda targʻib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va maʼnaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlash ishlari eʼtibordan chetda qolib kelmoqda. Yuqorida zikr etilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, oʻzbek maqom sanʼatini chuqur oʻrganib, oʻziga xos ijro maktablari va anʼanalarni yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning óltin fondiõni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targʻib qilish maqsadida:

Oʻzbek milliy maqom sanʼati markazining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin: Oʻzbekistonda maqom sanʼatini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va anʼanalarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda oʻrganish va qayta tiklash; oʻzbek maqom sanʼati mumtoz va zamonaviy ijro namunalarining óltin fondiõni yaratish; xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom sanʼati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy oʻzlikni anglash tuygʻusi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish; maqom sanʼati boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va targʻib qilish boʻyicha xalqaro hamkorlikni yoʻlga qoʻyish;

Mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom sanʼatining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bogʻliq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur oʻrganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish; maqom sanʼatining koʻp asrlik ijro yoʻllarini puxta oʻzlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, yosh avlod vakillariga oʻrgatib kelayotgan maqomchilar, maqomshunos ilmiy-pedagog olimlar va mutaxassislari, óMaqom markazi xodimlari faoliyatini moddiy va maʼnaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlash; yurtimizda maqom sanʼati boʻyicha xorijiy yetuk ijrochilarning oʻzaro tajriba almashuvi, mahorat darslari hamda turli xalqaro maqom anjumanlari va tanlovlarini tashkil etish; respublika hududlarida taniqli maqom ijrochilarining konsertlarini va mahorat darslarini tashkillashtirish; maqom sanʼatini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari va Internet orqali Oʻzbekiston va chet ellarda keng targʻib etilsin¹.

Shahrisabz shahar madaniyat saroyini kapital taʼmirlash, hozirgi vaqtda Oqsaroy maydonidagi mavjud Maqom markazi hamda bolalar musiqa va sanʼat maktabi faoliyatlarini takomillashtirish; Xalqaro maqom sanʼati anjumanini yuksak saviyada oʻtkazish uchun horijiy davlatlardan taniqli musiqashunos olimlar, sanʼatkorlar, ijodiy jamoalar va mutaxassislarni taklif etish; 2018-yildan boshlab sohada faol ijod qilayotgan sanʼatkorlarni qoʻllab-quvvatlash va

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Toshkent shahri, 2017-yil 17-noyabr

ragʻbatlantirish maqsadida ÓEng yaxshi maqom xonandasiô, ÓEng yaxshi maqom sozandasiô, ÓEng yaxshi maqom ustozîô, ÓEng yaxshi maqom targʻbotchisiô, ÓEng yaxshi yosh maqomchiô kabi nominatsiyalar boʻyicha mukofotlar taʼsis etildi.